

SHAHRISABZLIK SHOIR VA XATTOTLAR

Hamrayeva Zebo

Iqtisodiyot Va Pedagogika Instituti

Annotatsiya: Maqolada Shahrisabzlik shoirlar va xattotlar san'ati haqida so'z boradi. Shahrisabz — o'zining tarixiy, madaniy va adabiy merosi bilan mashhur bo'lgan o'lka bo'lib, u yerda ko'plab mashhur shoirlar, adiblar va xattotlar yashagan. Maqolada Shahrisabzlik taniqli shoirlar, ularning asarlari va ijodiy yutuqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, shaharda rivojlangan xattotlik san'ati va uning o'ziga xos uslublari ham ko'rib chiqiladi. Shahrisabzlik adabiyot va san'atning o'ziga xos ahamiyati, shuningdek, xalqaro madaniyatga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, shoirlar, xattotlik, adabiyot, san'at, madaniy meros, tarix, ijod, o'zbek adabiyoti, madaniyat.

Shahrisabz shahri ko'plab olim-u, fuzolalar, madaniyat vakillari, xattot-u shoirlar yurti. Darxaqiqat, Shahrisabz xalqini adabiyot va san'at asarlarini sevuvchilar, ijodkorlar makoni desak ham xech mubolag'a bo'lmaydi. XV-XIX asrlarda shahardan Ayyub Shahrisabz ibn Abulbaraka, Lozimiy Keshiy, Najmiy Keshiy, Hakim Shahrisabziy, Farax Shahrisabziy kabi shoirlar yetishib chiqqanlar.

XIX- asr oxiri - XX - asr boshlariga kelib Mirzo Umrboqiy ShaHrisabziy, Fayzullaxo'ja Ravnaqiy, Abdullo Rahmon Gulshaniy, Ismoilxon Shahrisabziy Faqiriy, Najmiddin Asiriy, Salohiddin Mannon o'g'li kabi yirik adabiyot vakillarini keltirish mumkin. Ushbu ijodkorlar o'zbek klassik adabiyoti an'analarini Shahrisabz shahrida davom ettirgan keyingi vakillari hisoblanadilar. Yuqorida zikr qilingan xattot va shoirlarning ayrimlari haqida fikr yuritimiz.

Fayzullaxo'ja Rayvaqiy.

U shoirlikdan tashqari tasavvuf tarixiga oid asarlar muallifi ham bo'lgan. "Ravnaqiy", "Ramziy" taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Fayzullaxo'ja Ravnaqiy bundan tashqari xattotlik san'atidan ham xabardor bo'lgan. U otasi izidan borib, 1919 yildan Shahrisabz qozisi sifatida ish olib borgan.

1929 yildan boshlab qozilik sudlarini yo'q qilinishi munosabati bilan sovet idoralariga yurist vazifasida faoliyat ko'rsatgan. Sovet tuzumining qatag'on siyositi yillarida (1930-1931 yillar) u o'z vazifasidan ketishga majbur bo'lgan. Bu vaqtda Fayzullaxo'ja Ravnaqiy o'zining shaxsiy arxivi va kutubxonasini yashirib Tojikistonga ketgan.

1950-yildan Shahrisabzga qaytib kelgan va davlat ishlariga umuman ishlaman. Fayzullaxo'ja Ravnaqiyning dastlabki she'riy to'plami "To'hfatul ahhob fi tazkiratul as'hob" nomi bilan 1915 yilda Buxoroda nashr kilingan. Uning she'rlari asosan ishqiyy va ijtimoiy mavzularga yozilgan. Ravnaqiyning shaxsiy kutubxonasida 100 ga yaqin qo'lyozma kitoblar saqlangan. Bundan tashqari u 10 ga yaqin asarlar muallifi. Uning "Risolayi tariqati ishqiyya", "Risolaayi chishtiyya", "Risolayi jahriyyayi yassaviyya" asarlari shular sirasiga kiradi. Fayzullaxo'ja Ravnaqiy xattot sifatida ham mashhur bo'lgan. U "Bismilloh"ni 25 xil usulda yozib chiqqan. Uning arxivi va kutubxonasi Shahrisabzda avlodlari qo'lida saqlanmoqda.

Abdulloh Rahmon Gulshaniy ham g'azal, muxammas, ruboiylar yozgan. Shahrisabzda to'g'ilgan bu shoir umrining oxirgi yillarini Qamashi tumanida o'tkazgan.

1917-yilda tanqidiy she'rlari uchun Buxoro amiri tomonidan zindonga tashlanadi.

Abdullo Rahmon Gulshaniy 1927-1929- yillarda Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat universitetida o'qib, turli davlat idoralarida xizmat qilgan. 1962-yildan O'z RFA Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlay boshlagan. O'zi qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra Gulshaniy jami 600 misradan ortiqrok she'rlar yozgan. 1998-yili uning "Alvido" nomli she'riy tuplami nashr etilgan. Abdulloh Rahmon Gulshaniy murakkab janrlardan bo'lgan muammo yo'nalishida (tanqidiy) ijod qilishni yaxshi ko'rgan. Bundan tashqari u har baytida oshiq va ma'shuqalar gavdalangan "Tuy-yu tuyona" deb nomlangan doston yozgan. Abdulloh Rahmon Gulshaniyning qo'l yozma kitoblardan iborat kutubxonasi ham bo'lgan. U 2 jilddan iborat "Gulistoni Gulshaniy" devona, 3 jilddan iborat bo'lgan tojikcha she'rlar to'plami va dostonlari hozirda O'Z RFA Sharqshunostlik instituti fondida saqlanmoqda.

Salohiddin Mannon o'g'li (Solihiy)

Bu shoir ham Shahrisabzda yashab ijod qilgan. U "Shoh Abbos va Shamsiqamar" nomli tarixiy didaktik doston yozgan. Salohiddin Mannon o'g'li (Solihiy) ning asarlari ham O'Z RFA Sharqshunostlik intsituti fondida saqlanadi. Bu shoir ham xattotlik san'ati qo'lyozma kitoblarini ko'chirishda yaxshi natijalarga erishgan.

Shahrisabz shahri ayni damlarda o'zining xattotlari bilan ham mashxur bo'lgan. Muhammad Yusufxo'ja Shahrisabiy (Keshiy), Ibrohim Devona, Mulla Do'st Muhammad Shahrisabziy, Bobobek Ishtabir, Mirzo Abdulvahhob, Mirzo Ibrohimxo'ja, Imomiddin Shahrisabziy, Yormuhammad Qora Shahrisabziy, Ergash Devonayi Keshiy, Muhammad Latif Keshiy, Abdumalik Shahrisabziy, Rahmatulla G'izoliy Keshiy, Mirzo Abdulqodir Keshiy, Muhammad SHERALIBEK Shahrisabziy, Muhammad Rajab Shahrisabziy, Abdulg'afur Shahrisabziy, Muhammad Yusuf Shahrisabziy shular sirasiga kiradi.

Muhammad Yusufxuja Shahrisabziy (Keshiy), Yormuhammad Qora Shahrisabziylar xattotlik san'atining mashxurlari bo'lishgan. Binobarin, Yunusxo'ja Shahrisabziy 30 yaga yaqin asarlarni ko'chirgan. Masalan, Toshkentdagi mashhur xattot Shohmurod kotib Yunusxo'jaga taqlid qilib, fors- tojik adabiyotining mashhur namoyondasi Abdulqodir Bedil devonini bir necha marta shikasta xati bilan ko'chirib, toshbosmada nashr qildirgan.

Yormuhammad Qora Shahrisabziy ham taniqli xattotlardan, u 1821-1876 yillar mobaynida birgina Alisher Navoiy "Xamsa" asarini 5 marotaba ko'chirgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Shahrisabz xattotlari ko'chirgan asarlar asosan mayda nastaliq xatida bitilgan. Bunday uslubda yozish Shahrisabz xattotlariga xos bo'lgan xususiyat desak xech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Shahrisabzlik shoirlar va xattotlar o'z asarlari orqali nafaqat o'zbek adabiyoti va san'ati, balki jahon madaniyatiga ham beqiyos hissa qo'shganlar. Ularning ijodi va xattotlik san'ati Shahrisabzning boy tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu hududda shakllangan adabiy va san'atlarga bo'lgan hurmat, avlodlardan-avlodga o'tib, zamonaviy san'atkorlar va olimlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat

qilmoqda. Shahrisabzlik shoirlar va xattotlar o'z vaqtida nafaqat o'z xalqining, balki butun turkiy dunyoning madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatganlar.

Foydalanilgan manbalar:

1. Kattaev K. Maxdumi A'zam va Dahbed. Samarqand Sutdiyov, 1994.- B.73.
2. Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
3. Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug'at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108.
4. Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. - B. 4